ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-10

SHARQ VA G‘ARB MUTAFAKKIRLARINING GERMENEVTIKAGA OID QARASHLARINING SPETSIFIK MOHIYATI

Djumaniyazov Raximboy, filologiya fanlari nomzodi, professor

Annotatsiya. Ushbu maqolada talqin nazariyasi hisoblangan germenevtikaning mohiyati va u haqdagi mutafakkirlarining qarashlaridagi differensial jihatlar hamda Sharq va G‘arb germenevtikasining o‘ziga xos tomonlari xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: mutafakkir, spetsifika, germenevtika, kompetentlik, nutq madaniyati, nutqiy faoliyat, ta’lim modeli, kontekst talqini, matn, milliy kontent, san’at. sifatli ta’lim, pedagogik mahorat, talqin nazariyasi, tushunish va tushuntirish.

Аннотация. В статье рассматривается сущность герменевтики как теории интерпретации, дифференциальные аспекты взглядов её мыслителей, а также особенности восточной и западной герменевтики.

Ключевые слова: мыслитель, конкретизация, герменевтика, компетентность, культура речи, речевая деятельность, образовательная модель, контекстуальная интерпретация, текст, национальное содержание, искусство, качественное образование, педагогическое мастерство, теория интерпретации, понимание и объяснение.

Abstract. This article discusses the essence of hermeneutics, which is a theory of interpretation, and the differential aspects of the views of its thinkers on it, as well as the specific aspects of Eastern and Western hermeneutics.

Key words: thinker, specification, hermeneutics, competence, speech culture, speech activity, educational model, contextual interpretation, text, national content, art. quality education, pedagogical skills, theory of interpretation, understanding and explanation.

Ilm-fanda shunday tushunchalar bo‘ladiki, u bir jihatdan qaralsa, san’at, kasb-hunar, fan, o‘quv predmeti, ikkinchi tomondan qaralsa, metodologiya, o‘ziga xos usul, texnologiya va mahorat obyektidir. Germenevtika va notiqlik tushunchasi ham xuddi shunday taassurot uyg‘otadi.

Germenevtika haqidagi qarashlar hamda mulohazalar bilan tanishish masalaga oydinlik kiritishga imkon beradi.

Germenevtika bugungi kunda faqat tarixiy matnni sharhlash nazariyasi bo‘lib qolmay, balki universallashgan, hatto oddiy o‘quvchi asarni anglab yetishi bilan bog‘liq hodisalarni qamrab oladigan ta’limotdir (anglash refleksiyasi barchaga xos). Ayrim manbalarda esa, unga matnni tushunish va talqin etish san’ati – interpretatsiya to‘g‘risidagi ta’limot, deb ham ta’rif berilgan.

Pedagogik nazar va mohiyat bilan qaralganda unga shunday ta’rif berish mumkin. Germenevtika tarbiyaviy va ta’limiy ma’lumotlarni, barcha sohalarga oid ilmiy-nazariy bilimlarni yetkazishni, voqelikni sharhlashni ularni tushuntirish va talqin qilishni ta’minlaydigan, shaxslar aro munosabatlarni yaxshilash, inson tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishga yo‘naltirilgan mexanizmlar majmuidir.

Germenevtikaning obyekti – ma’no va mazmunga ega bo‘lgan har qanday inson ijodi mahsuli (odatda, germenevtikada – matn deyiladi) bo‘la oladi. Tarixan vaqt o‘tishi, davr va an’analar almashinishi bilan germenevtikaning obyekti ham o‘zgarib borgan. Chunki, yuqorida keltirilganidek, dastavval, germenevtik talqinga ehtiyoj Xudoning irodasi (istak, so‘zi)ni odamlarga yetkazish bo‘lsa, keyinchalik bu munosabatda vositalar ya’ni ilohiy kitoblar (va ularning matni) paydo bo‘ldi; ramziy

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-10

ma’noga ega bo‘lgan badiiy ijod asarlari yaratildi; ilk qonun hujjatlari ishlab chiqildi va bu hodisalarning barchasi vaqt o‘tishi bilan talqin qilinishga muhtoj bo‘lib qoldi.

Keyinchalik esa, yani o‘rta asrlar, yangi va eng yangi davrda o‘tmish madaniyatining mazmunini o‘rganish, tarixiy an’analar ma’nosini talqin qilish uchun nafaqat ilohiy matnlar, balki tarixiy shaxslar (tarixchi, yozuvchi, shoir, rassom va hokazo)lar ijodini tushunish uchun ham germenevtik tadqiqot zaruratga aylandi. Germenevtik tadqiqotlar manbai sifatida ilohiy, tarixiy, madaniy matnlar bilan bir qatorda yuridik va adabiy badiiy matnlar ham muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Shu yo‘sinda germenevtikaning tadqiqot obyektida o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Demak, germenevtika tarixan ilohiy matnlar talqini (interpretatsiyasi) bilan mashg‘ul bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik tarixiy manbalar va san’at asarlari, madaniy unsurlar va mazmunga ega bo‘lgan har qanday ijod hamda mehnat mahsulini o‘z tadqiqot obyektiga aylantirdi.

Mohiyatan, germenevtikaning asosini mazmunni tushunish va talqin qilish tushuntirish masalasi tashkil qiladi va u barcha fan tarkibida mavjud: adabiyotshunos badiiy matnni talqin qiladi, tarixchi ijtimoiy jarayonlar dialektikasini tushuntiradi, san’atshunos san’at namunasining asl haqiqatini (mazmunini) izohlashga harakat qiladi, psixolog individning ruhiy kechinmalarini dekod (desimvolizatsiya) qilishga harakat qiladi va hokazo. Umuman olganda, barcha fanlar nimanidir tushunib, nimanidir tushuntirishga yo‘naltirilgan.

Pedagogikaning boshqa metod va yondashuvlari tushunish va tushuntirish imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi. Masalan tabiiy fanlarda empirik metodlar asosiy natijalarni aniqlashtirish vazifasini bajarsa, uning natijasi (ya’ni tushunilgan jaraèn) muayyan qoida, formula kabi barqaror, izchil, yaxlit nazariy fikrda aks etadi. Keyingi bosqichda esa, mana shu yaratilgan qoida èki formula tabiiy obyektlarga nisbatan tadbiq qilinishi asosida talqin qilinadi, ya’ni tushuntiriladi. Bundan kelib chiqadiki, barcha yakka fanlar yoki har qanday bilim asosini oddiy tushunish va tushuntirish jarayoni tashkil qiladi.

Demak, germenevtikaning mohiyati barcha fanlar tarkibiga singib ketgan. Dunyoning qator mamlakatlarida xususan, Italiya, Germaniya, Avstriya, AQSH, Kanada, Fransiya kabi yirik rivojlangan davlatlarda germenevtika fan sifatida qabul qilinib, ayrim maktab, kollej va universitetlarda alohida fan sifatida talim tizimida o‘qitiladi. Rossiyaning qator oliy talim muassasalarida ham san’at germenevtikasi, psixogermenevtika, filologik germenevtika, yuridik germenevtika, falsafiy germenevtika kabi fanlar umumkasbiy fan sifatida o‘quv rejasiga kiritilgan.

Ma’lumki, tahlil qilishning umumiy nazariyasi bo‘lmish germenevtika XIX asrdayoq nemis faylasuflari F.Shleynmaxer va V.Dilteylar tomonidan gumanitar bilishning metodologik asosi sifatida maydonga tashlangan edi. F.Shleynmaxer fikricha, matn o‘z tabiatiga ko‘ra ikki yoqlamadir. Ya’ni u: til tizimiga nisbatan qism, individga nisbatan esa ijod mahsulidir. Shuning uchun ham u talqinni ikkiga (grammatik va psixologik) ajratadi. V.Diltey esa, germenevtikani ruh haqidagi (gumanitar) fanlarning asosi deb biladi. Uning fikricha, tushunish butunlik (hayot) ni adekvat ifodalash (idrok etish)ning yagona vositasi.

V.Diltey tushunish va tushuntirish ruh haqidagi fanlarda qo‘llaniluvchi metod. Barcha vazifalar tushunishda jamlanadi. Aynan tushunish va tushuntirishda ruh haqidagi fanlar haqiqati ochiladi, bir nuqtada muayyan, aniq olamni yaratadi”

Albatta, bu bilan germenevtika yakka, mustaqil fan maqomiga javob bera oladi, deb xulosa chiqarishga shoshilmaslik kerak. Chunki, germenevtika alohida fan qamrovidan ancha keng va germenevtika atamasi qo‘llanilganida tasavvurda boshqa fanlar qatori aniq obyekt va predmet chegarasi ilg‘anmaydi. Shu bois, germenevtikani fanlararo, sohalararo tadqiqot metodologiyasi deb

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-10

atash maqsadga muvofiq. Albatta, bu yerda germenevtik nazariyaning yaxlitligini, o‘zining aniq konseptual asosi, amal qilish tamoyillari mavjud ekanligini ta’kidlash o‘rinli. Germenevtik nazariya metodologik asos sifatida alohida fan darajasidan yuqorida turishini ham nazarda tutmoq lozim.

Germenevtik tadqiqotlar inson ijodi va mehnati mahsulini tushunishga yo‘naltirilgan yondashuv sifatida har qanday tarixiy, badiiy matnlarni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, tarixiy tadqiqotlarda Avesto, Veda va upanishadalarni o‘rganishda ham germenevtikaning tushunish va tushuntirishga oid ayrim metodlaridan foydalanish mumkin. Biroq, Sharq talqin nazariyasi G‘arb talqin nazariyasi (germenevtika) kabi nazariy metodologik ta’limot sifatida shakllanish bosqichlarini bosib o‘tmagan. Shunga qaramay, yunon mifologiyasidagi Germes haqidagi yoki Injil matnini sharhlash uchun G‘arbda shakllangan germenevtika ta’limoti bilan Qur’on oyatlarini sharhlash va tushuntirish asosida vujudga kelgan tafsir ilmi orasida ham shaklan, ham mazmunan o‘xshashlik bor. Sharqda ham germenevtik tafakkur o‘ziga xos tarzda mavjud bo‘lgan. Ammo tafsir ilmi tarix davomida turli mustamlakachilik siyosati, mafkuraviy cheklanishlar ta’sirida G‘arbda shakllangan xristian ekzegetikasi èki filologik, yuridik, falsafiy germenevtika kabi muayyan taraqqièt bosqichlarini bosib o‘tib, o‘zbek ma’naviy merosi uchun metodologik zamin bo‘la oladigan darajaga chiqmagan. Ayrim mualliflar VII-VIII asrlarda islom dini bilan bog‘liq tafsir ilmini Sharq germenevtikasi sifatida talqin etadilar.

Tushunish va tushuntirish bir qancha vositalar imo-ishora, belgi, simvollar orqali kechadigan jarayon. Belgilar ichida soz hayotda eng ko‘p qo‘llaniladigan vositadir.

Germenevtika matnlar, ifodalar, madaniyat va inson faoliyatini tushunish, sharhlash va tavil qilish metodikasi sifatida qaralar ekan, u har bir o‘qituvchi nutqining asosiy nazariyasini tashkil etishi lozim. Ya’ni o‘qituvchi nutqidagi ma’no va kontekstni aniqlab, biror narsani tushunishning ilmiy-falsafiy usullarini ishlab chiqish germenevtik yondashuvni talab etadi.

Tushunish va tushuntirish bevosita til vositasida amalga oshiriladi. Til strukturasining o‘ziga xos xususiyatlari haqida F.de Sossyur tomonidan olib borilgan tadqiqotlar etiborga loyiq. U strukturali (tuzilmali) lingvistika, uning tushunish va tushuntirish jarayonidagi o‘rnini tahlil etadi.

Jamiyat taraqqiètining barcha davrlarida inson va uning mohiyatini bilish asosiy maqsad bo‘lib, tabiat va ruh haqidagi fanlar shu izlanishlar mahsulidir. Qo‘lga kiritilgan yutuq, kashf etilgan yangiliklarga qaramay, XXI asrda eng murakkab, qiyin masala insonning fikrlash, tushunish jarayonlarini o‘rganish bo‘lib qolmoqda. Pedagogikada germenevtik yondashuv tushunish omillarini o‘rganadi. Inson har qanday narsa va hodisa haqida fikr yuritar ekan, dastlab uning mohiyatini mumkin qadar chuqurroq tushungan bo‘lishi maqsadga muvofiq. Eshitilgan, ko‘rilgan, o‘qilgan narsa va hodisalarning hammasini ular haqida atroflicha fikr yuritmay, tahlil qilmay, qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qilish loqaydlikning bir ko‘rinishi deb qabul qilinadi. Zero, tinglanganlar noto‘gri, ko‘ringanlar soxta, o‘qilganlar esa, haqiqatdan ancha yiroq bo‘lishi ham mumkin. Germenevtik yondashuv narsa va hodisalar asl mazmunini tushunish, aniqlash, izohlash va tushuntirish imkoniyatini beradi. Bu jihatlar uning dunyoqarashi bilan bog‘liq vazifasida aks etadi. O‘z-o‘zini tushunish orqali olamni tushunish germenevtikaning falsafiy maqomini mustahkamladi va ilgari diniy, filogik, yuridik matnlar talqini bilan shug‘ullangan germenevtika yangi davrning so‘nggi yillariga kelib shaxsni ham o‘z tadqiqot obyektiga aylantirdi.

Adabiyotshunos olim A.Erkinov germenevtikaning nazariy jihatlarini, jumladan, germenevtika va tafsir, falsafiy germenevtika, avtointerpretatsiya, avtokommunikativ interpretatsiya, monointerpretatsiya, tarixiy-funksional idrok va matn talqini, ta’sir va aks ta’sir dialektikasining manbalarda ifodalanishi, appersepsiya, bibliopsixologiya masalalari, dekod, deshifr,

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY


VOLUME-5, ISSUE-10

dekontekstualizatsiya, diaxroniya, dialog (madaniyatlar uchrashuvi), kitobat talqini kabi matnning germenevtik tahliliga bag‘ishlangan onlab hodisalarni tahlil qilgan.

Tushunish va tushuntirish masalalarini o‘rganishda M.M.Baxtin tomonidan o‘rganilgan badiiy ijod germenevtikasiga alohida to‘xtalib o‘tish joiz. Xususan, u san’at va auditoriya, aktyor mahorati, tomoshabin, kuzatuvchi, san’at asari va uning insonlar tomonidan qabul qilinishi muammolarini tadqiq qilgan.

Yu.Mann, E.Kassirer, K.Girs kabi olimlaring tadqiqotlarida aynan falsafiy germenevtika muammolari tadqiq etilmagan bo‘lsada, badiiy ijod asarlaridagi ramzlar talqiniga bag‘ishlangan muhim xulosalar qayd etilgan.

A.Brudniy germenevtikaning psixologik jihatlarini o‘rganib, tushunishning nafaqat barcha fanlar, balki davr uchun eng dolzarb masalaga aylanganligini ta’kidlaydi.



Germenevtikaning amaliy qo‘llanilish sohasi

Germenevtika faqat matnni tushunish emas, balki insonning o‘ziga, tabiatga va jamiyatga nisbatan munosabatini anglash usulidir. Uning tamoyillari ilmiy, falsafiy va kundalik hayotda ham qo‘llaniladi.

Germenevtik metodologiya inson ijodi va mehnati mahsulini tushunishga yo‘naltirilgan yondashuv sifatida har qanday tarixiy, badiiy, ilmiy matnlarni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Ko‘rinadiki, germenevtikada inson hayoti ong (tafakkur)ga bog‘lab tushuntiriladi. Olam insonga nisbatan talqin qilinadi. Boshqacharoq aytganda, inson borligiga nihoyatda katta e’tibor qaratiladi. Zotan, olamning mazmun-mohiyati aql-farosat orqali anglanadi. Ya’ni, dunyo inson uchun yaratilgan va unga moslashtirilgan deb qaraladi.

Germenevtik yondashuv asosida uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimida o‘qituvchilarning malakasini oshirish tizimi orqali nutq madaniyatini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini aniqlash bizning tadqiqot ishimizning asosiy vazifalaridan biri bo‘lganligi sababli, biz germenevtik yondashuv asosida nutqni talqin qilish (interpretatsiya) jarayonlarini kuzatdik, o‘qituvchilarning ta’lim oluvchilar bilan pedagogik muloqotda dialogni tashkil etish usullarini tahlil qildik, nutqni rivojlantirish jarayonlariga matnlar (darsliklar, ma’naviy asarlar) va ularning tarbiyaviy ta’sirini

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-10

o‘rgandik, ma’naviy tarbiya tizimida nutq vositasida milliy va universal qadriyatlarni shakllantirilishini, zamonaviy sharoitlarda ma’naviy tarbiyaning nutqiy ifodalanishini tahlil qildik.

Notiqlik san’atining kompozitsiyasini mukammal bir tizimga keltirgan olimlardan biri Mark Tulliy Sitseronning nutqlari o‘zining tartibli tuzilishi, lo‘nda va ta’sirchanligi bilan mashhur. Sitseron o‘z nutqlarining kompozitsiyasini aniq va tartibli qismlarga ajratib, nutqning samarasini maksimal darajaga yetkazgan. Uning tizimiga ko‘ra, har bir notiq yoki nutq kirish qismi, odatda, tinglovchi auditoriyani nutqni qabul qilishga tayyorlashi, notiq o‘z auditoriyasiga murojaat qiladi, mavzu bilan bog‘liq asosiy masalalarni kiritishi va ular bilan bog‘liq qiziqishlarni uyg‘unlashtirishi zarur.

Umumlashtirgan holda shuni aytish joizki, mashriqzamin va mag‘ribzamin mutafakkirlarining g‘oyaviy qarashlarida ular yashagan davrning ideologiyasi va mafkurasi bevosita va bilvosita o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Bu esa, talqin nazariyasi bo‘lmish germenevtikaning shaklu shamoyili va uslublariga o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Shu asnoda Sharq germenevtikasi va G‘arb germenevtikasi o‘zining spetsifik xususiyatlarini shakllantirgan.

qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi

2. O‘zbekiston Respublikasi «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. 23.09.2020.

3. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot nashriyoti, 1993.

4. Allayarova S.N. Germenevtika: O‘quv qo‘llanma. – T.: Extremum press, 2017.

5. Qo‘ng‘irov R., Begmatov E., Tojiev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – T.: O‘qituvchi, 1992.

6. Karnegi Deyl. O‘z-o‘ziga ishonch hosil qilish va omma oldida so‘zlash san’ati. – T.: Yangi asr avlodi, 2019.

sanoati. – T., 2002.

olida): Avtoref. – T., 2017.

9. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – T.: IQTISOD-MOLIYa, 2010.

10. Muslimov N., Usonboyeva M., Sayfurov D., To‘raev A. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – T., 2015.

– T.: Sahhof, 2023

12. Ibraimov X., Quronov M. Pedagogika nazariyasi va tarixi: Darslik. – T.: Sahhof, 2024

– T.: Yangi kitob, 2021.

O‘quv qo‘llanma. – T.: Yangi asr avlodi, 2024.